



RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Samandarov Javlon Iskandarovich

Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak informatika o'qituvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi roli, zamonaviy o'qituvchining raqamli kompetensiyalari, AKT vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini egallash va ularni dars jarayonida qo'llash bo'yicha takliflar bayon qilingan. Bundan tashqari, axborotlar bilan ishlash kompetentligini baholash mezonlari va interaktiv metodlar tavsiflangan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, informatika, axborot kompetentligi, raqamli texnologiyalar, pedagogik metodika, AKT

Аннотация: В статье рассматривается методика формирования и развития информационной компетентности будущих учителей информатики в условиях цифрового образования. Освещены роль цифровых технологий в учебном процессе, цифровые компетенции современного педагога, а также навыки работы с ИКТ-средствами и их применение на уроках. Кроме того, приведены критерии оценки информационной компетентности и описание интерактивных методов.

Ключевые слова: цифровое образование, информатика, информационная компетентность, цифровые технологии, педагогическая методика, ИКТ

Annotation: This article discusses the methodology for developing and enhancing the information competence of future computer science teachers in the



context of digital education. It highlights the role of digital technologies in the learning process, the digital competencies of modern educators, and the skills required to work with ICT tools and apply them in teaching. The article also presents assessment criteria for information competence and describes effective interactive methods.

Keywords: digital education, computer science, information competence, digital technologies, teaching methodology, ICT

Globalashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda pedagog kadrlar tayyorlashda raqamli savodxonlik, axborot bilan ishlash ko'nikmalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi kompetensiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, informatika fanini o'qitishga ixtisoslashayotgan bo'lajak o'qituvchilarda axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash, taqdim etish va undan amaliy foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish – ularning kasbiy tayyorgarligining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Raqamli ta'lim sharoitida bu jarayon yanada dolzarb tus oladi. Chunki zamonaviy darslar ko'proq raqamli vositalar orqali olib borilmoqda, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqot virtual muhitda kechmoqda, ta'lim resurslari esa elektron shaklda taqdim etilmoqda. Shu bois bo'lajak informatika o'qituvchilari nafaqat AKT vositalarini bilishi, balki ularni ijodiy va metodik jihatdan samarali qo'llay olishi zarur.

Ushbu maqolada aynan raqamli ta'lim muhitida informatika fani o'qituvchilarining axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularning amaliy ahamiyati tahlil etiladi.

Bo'lajak informatika fani o'qituvchilarida axborot bilan ishlash kompetentligini shakllantirishda raqamli texnologiyalar asosiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu kompetentlik nafaqat kompyuter savodxonligini, balki



axborotni tanlash, saralash, tahlil qilish, grafik va multimedia vositalari yordamida taqdim etish, shuningdek, uni ta'lim jarayonida pedagogik maqsadlarga muvofiq qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shu bois, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'limni qo'llab-quvvatlovchi o'quv dasturlari, multimediya vositalari, platformalar va simulyatorlardan foydalanish, bo'lajak informatika o'qituvchilari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'quv jarayonida Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi raqamli muhitlarda ishlash orqali talabalar interaktiv ta'limga jalb qilinadi, bu esa ularning axborot bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shuningdek, zamonaviy kod muharrirlari, algoritmlarni vizualizatsiya qilish vositalari va dasturlash muhitlarida ishlash ham raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridandir. Muhimi, axborot bilan ishlash kompetentligini faqat texnik bilimlar emas, balki tahliliy va tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi va axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirish zarur.

Axborot oqimi keskin ortib borayotgan hozirgi davrda bo'lajak o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri – ishonchli manbalarni tanlash, noto'g'ri yoki soxta axborotni ajrata olish va uni tahlil asosida o'quvchilarga yetkazishdir. Bu jarayonda raqamli media savodxonlik hamda axborot madaniyatiga oid maxsus trening va modullarning o'rni beqiyosdir. Bundan tashqari, raqamli ta'limda samarali metodlardan biri bu loyiha asosida o'qitish bo'lib, u orqali talabalar real hayotdagi axborot muammolarini tahlil qilish va yechim topishga o'rganadilar.

Axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirishda vizual taqdimotlar yaratish, infografika tuzish, raqamli hikoyachilik (digital storytelling), tajriba asosida o'rganish (learning by doing) kabi metodlar muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, blokli o'quv platformalarida mustaqil ishlash, onlayn laboratoriyalar va mashg'ulotlar yordamida o'z-o'zini baholash mexanizmlarining joriy etilishi bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil va mas'uliyatli ta'lim madaniyatini shakllantiradi. O'qituvchilik faoliyatida pedagogik dizayn, elektron dars ishlanmalar yaratish,



interaktiv testlar tuzish, o'quv dasturlarni moslashtirish, feedback mexanizmlarini joriy etish – bularning barchasi axborot bilan ishlash kompetentligini amalda namoyon etadi. Shu boisdan pedagogika institutlarida zamonaviy AKT laboratoriyalarini tashkil etish, raqamli pedagogikadagi ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilish, raqamli portfoliolar yuritish va muqobil baholash usullaridan foydalanish takomillashtirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim sharoitida informatika fani bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni axborot bilan ishlashga yo'naltirish, ularning raqamli kompetentligini shakllantirish – bu nafaqat zamonaviy ta'limning dolzarb yo'nalishi, balki uzluksiz o'quv jarayonining sifatini oshiruvchi muhim omildir. Bu esa, o'z navbatida, kelajakdagi ta'lim sifatini belgilovchi poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. Rajabova D.A., Mirzamaxmudova M.T. Ta'limni raqamlashtirish jarayonida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirish omillari. "Zamonaviy uzluksiz ta'lim sifatini oshirish:innovatsiya va istiqbollari" xalqaro konferensiya.T.:2023 yil. 121- 123-betlar.
3. Qosimov, S., va boshqalar. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida. Toshkent: Maorif nashriyoti. 2015